



URDU TILIDA TOPONIMLARNING TARIXIY-ETIMOLOGIK TAHLILI
(SA'DIY SHEROZIYNING "BO'STON" ASARI MISOLIDA)

Xayrullayeva Xumora Shavkat qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchi-stajori xumoraall@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Sa'diy Sheroziyning "Bo'ston" asari misolida toponimik birliklarning tarixiy-etimologik tahlili amalga oshiriladi. Unda toponimlarning kelib chiqishi, semantik xususiyatlari va ularning tarixiy asoslari o'rganiladi.

Kalit so'zlar: toponimika, obyekt, mikroobyekt, mikrotoponim, mikroko'lam.

Abstract: The article presents a historical-etymological analysis of toponymic units using the example of Sa'diy Sherozi's work "Boston". It studies the origin, semantic features and historical foundations of toponyms.

Keywords: toponymy, object, microobject, microtoponym, microscale.

Mazkur maqolani yozishdan maqsad "Bo'ston" asaridagi toponimik birliklarni tarixiy-etimologik jihatdan tahlilga tortishdir.

Toponimika (yun. topos joy, onoma nom) onomastikaning jug'rofiy nomlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va o'zgarishini o'rganuvchi bo'limi hisoblanadi.

Toponimlarning tasnifi u bilan nomlanadigan obyektlarga qarab butun Yer yuzida tartib va yaxlitlik bilan ajralib turadi.

Avvalo, Yer yuzasi quruqlik (territoriya) va suv hududi (akvatoriya) ga bo'linadi. Quruqlik alohida toifa sifatida oronimlar deb birlashtiriladi. Bundan tashqari, yer osti tizimlarining nomlari spelenonimlar sifatida ajratilishi mumkin. Akvatoriyada esa quyidagi guruhlar mavjud:

- pelagonimlar — dengizlar;
- limnonimlar — ko'llar;
- gelonimlar — botqoqlar;
- potamonimlar — daryolar.

Tabiiy geografik obyektlardan tashqari, inson faoliyati bilan bog'liq obyektlarning ham katta guruhi mavjud. Bular aholi punktlari nomlari bo'lib, hozirda oykonimlar deb yuritiladi.

Mikroobyektlar va mikronomlarning g'oyasi toponimiyani o'rganish jarayonida paydo bo'lgan, bunda "mikrotoponimlar" termini kichik tabiiy-geografik obyektlarning nomlariga nisbatan qo'llanadi.

Biroq mikrotoponimiyaning chegaralari va hajmi bahsli masaladir. Avvalo, mikrotoponimlarni ajratishda miqdoriy va sifat jihatlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Miqdoriy mezon nafaqat obyektning kichik o'lchamini bildiradi, balki dastlab toponimik nom faqat obyektning bir qismi yoki detali uchun berilmayaptimikan, degan savolni ham o'rta qo'yadi.

Bunga sifat mezonlari ham bog'liq: ehtimol, barcha (yoki deyarli barcha) tabiiy ravishda shakllangan nomlar dastlab mikrotoponimlar bo'lib kelgan.



Katta hududlarning dastlabki nomlari ko'pincha tasodifiy bo'ladi, chunki nom kashfiyotchi yoki ko'chmanchi ilk bor oyoq qo'ygan kichikgina hududga beriladi, masalan, Shimoliy Afrikaning katta hududiga arablar tomonidan berilgan Jazoir (Al-Jaza'ir — "orol(lar)") nomi aslida uning sohilbo'yi qismiga oid bo'lgan yoki butun Afrika qit'asining nomi shimoliy afrikalik qabilalardan birining nomidan kelib chiqqan.

Shu kabi faktlar bilan bog'liq holda mikrotoponimiya muammosi boshqa bir jihatdan yoritiladi, mikronomlar hali to'liq toponim sifatida shakllanmagan har qanday obyektlarning dastlabki nomlari sifatida qaraladi.

Tarixiy nuqtayi nazardan, ko'rinadiki, barcha toponimlar dastlab tasviriy xarakterga ega bo'lgan, masalan, qrim tatarlari tog' cho'qqilaridagi silliq yalang'och qoyalarni "qush qoyalar" (Qush-qaya) deb atagan, ko'plab turkiy xalqlar esa tor tog' dovonlarini "temir darvoza" (Demir-qapu) deb nomlagan. Bunday nomlar turdosh otlarga juda yaqin, faqat aniq obyektlarga bog'lanishi bilan ulardan farq qiladi.

Toponimlarning mikroko'lami onomastikaning muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, geografik nomlarning ichki tuzilishini, ularning morfemik, semantik va tarixiy qatlamlarini chuqur o'rganishni nazarda tutadi. Toponimika, ya'ni joy nomlarini o'rganadigan soha, makroko'lam darajasida umumiy tamoyillarni belgilasa, mikroko'lamda esa har bir toponimning ichki strukturasi, ma'nosi, kelib chiqish sabablari va lingvokulturologik xususiyatlari tahlil qilinadi.

Rus olimasi A.V.Superanskaya o'zining "Общая теория имени собственного" ("Atoqli otlarning umumiy nazariyasi")²⁰ asarida toponimlarni tildagi eng qadimiy nominativ birliklar sifatida baholab, ularning mikrostrukturasi fonetik, morfologik va semantik jihatlar uzviy bog'liq ekanini ta'kidlaydi. N.V.Podolskaya²¹ esa o'z tadqiqotlarida toponimlarning semantik evolyutsiyasi ularning etimologiyasi bilan bevosita bog'liq ekanini, shuningdek, ularning tarixiy o'zgarishlari tilning leksik tizimidagi dinamik jarayonlar bilan uyg'un kechishini ta'kidlaydi.

Hazrat Shayx Muslihiddin Sa'diy Sheroziyning "Bo'ston" asari misolida bir qator toponimlarning tarixiy-etimologik jihatlarini ko'rib chiqamiz.

غور کا بادشاہ غریب دیہاتوں کے گدبوں پر قبضہ کر لیتا اور ان پر اتنا بوجھ ڈالتا کہ بے چارے دو دنوں میں مر جاتے کیونکہ چارہ بھی نہ ڈالتا تھا۔

Tarjima: G'ur podshohi kambag'al qishloq aholisining eshaklarini tortib olib, ularga shu qadar og'ir yuk yuklardiki, bechoralar yem-xashak ham berilmagani sababli ikki kun ichida jon taslim qilardilar.

Ushbu gapda غور (G'ur) toponim hisoblanadi.

G'ur Afg'onistonning 34 ta provinsiyasidan birining nomi bo'lib, u mamlakat g'arbida joylashgan. Pushtu tilida gur – [tog'] ning arabiylashgan shakli, sababi bu hududda bir nechta baland tog'lar joylashgan.

"The Encyclopaedia of Islam" ("Islom ensiklopediyasi") ning G harfli so'zlar yoritilgan II jildida:

²⁰ Суперанская А. В. Общая теория имени собственного. – М.: Наука, 1973. – С.108.

²¹ Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – М.: Наука, 1988. – С. 40-45.



GHÖR hozirda Afg'oniston tarkibiga kirgan tog'li hudud bo'lib, Helmend vodiysi va Hirot o'rtasidagi oraliqni egallagan; hozirgi Hazoriston bilan tutash joy nomi ekanligi qayd qilingan²².

“A Concise Pahlavi Dictionary” lug'atida gar – [tog'] ma'nosida keladi²³.

ایک رات بغداد شہر میں آگ لگ گئی اور آدھا بغداد جل گیا۔

Tarjima: Bir kuni tunda Bag'dod shahriga o't ketib shaharning yarmi yonib ketdi.

Ushbu gapda بغداد (Bag'dod) toponim hisoblanadi.

Bag'dod Iroqning poytaxti, Dajla daryosining har ikki sohilida; Markaziy va Janubiy Osiyo hamda O'rta dengiz mamlakatlarini birlashtirib turuvchi yo'llar chorrahasida joylashgan shahar.

“The Encyclopaedia of Islam” (“Islom ensiklopediyasi”) ning B harfli so'zlar yoritilgan I jildida:

BAGHDAD Iroqdagi eng katta shahar ekanligi qayd qilingan²⁴.

“Этимологический словарь иранских языков” ga ko'ra, bag,baga oriy tilidagi bhaga so'zidan kelib chiqqan bo'lib, [1) baxt; 2) Xudo, xudolik] ma'nolarini anglatadi²⁵.

MacKenziening “A Concise Pahlavi Dictionary” lug'atida dadan,dah – [bermoq, yaratmoq] ma'nosida keladi²⁶.

Shunga ko'ra, BAGHDAD (بغداد) toponimi “Xudo tomonidan in'om qilingan(berilgan)” ma'nosini bildiradi.

ہند کے راجا نے اپنے ملک میں عدل و انصاف قائم کیا۔

Tarjima: Hind rojasi o'z mamlakatida adolat va insonparvarlikni o'rnatdi.

Ushbu gapda ہند (Hind) toponimi mavjud. Hind – bu Janubiy Osiyodagi yarimorol va tarixiy mintaqa bo'lib, hozirgi Hindiston, Pokiston va Bangladesh hududlarini o'z ichiga oladi.

“The Encyclopaedia of Islam” (“Islom ensiklopediyasi”) da:

HIND – bu forscha Hindu so'zidan olingan bo'lib, Sind daryosi va uning atrofidagi hududlarga nisbatan qo'llanilgan, keyinchalik butun Janubiy Osiyo uchun ishlatila boshlangan²⁷.

“Этимологический словарь иранских языков”da Hind nomi qadimgi fors tilidagi Hindu so'zidan kelib chiqqanligi ta'kidlangan²⁸.

MacKenziening “A Concise Pahlavi Dictionary” lug'atida Hind – Hindüg shaklida keltirilgan bo'lib, “Hindiston” ma'nosini anglatadi²⁹.

روم کے بادشاہ نے ایک عجیب و غریب خواب دیکھا۔

Tarjima: Rum podshohi ajoyib-u g'aroyib tush ko'rdi.

Ushbu gapda روم (Rum) toponimi mavjud. Rum – bu arab va fors manbalarida Vizantiya imperiyasi va umuman Rim imperiyasiga nisbatan qo'llanilgan nom.

“The Encyclopaedia of Islam” (“Islom ensiklopediyasi”) da:

²² Houtsman M.Th., Arnold T.W., Basset R., Hartmann R. The Encyclopaedia of Islam. – Leyden: Late E.J.Brill, 1913. – P.122.

²³ MacKenzie D.N. A Concise Pahlavi Dictionary. – London: Oxford University Press, 1971. – P.35.

²⁴ Houtsman M.Th., Arnold T.W., Basset R., Hartmann R. The Encyclopaedia of Islam. – Leyden: Late E.J.Brill, 1913. – P.563.

²⁵ Расторгуева В.С., Эдельман Д.И. Этимологический словарь иранских языков (Том 1, а–ä). – Москва: Восточная литература, 2000. – С.49.

²⁶ MacKenzie D.N. A Concise Pahlavi Dictionary. – London: Oxford University Press, 1971. – P.45.

²⁷ Houtsman M.Th., Arnold T.W., Basset R., Hartmann R. The Encyclopaedia of Islam. – Leyden: Late E.J.Brill, 1913. – P.649.

²⁸ Расторгуева В.С., Эдельман Д.И. Этимологический словарь иранских языков (Том 1, а–ä). – Москва: Восточная литература, 2000. – С.95.

²⁹ MacKenzie D.N. A Concise Pahlavi Dictionary. – London: Oxford University Press, 1971. – P.62.



RUM – bu arabcha soʻz boʻlib, “Rim” maʼnosini anglatadi va dastlab Sharqiy Rim imperiyasi (Vizantiya) uchun qoʻllanilgan³⁰.

MacKenziening “A Concise Pahlavi Dictionary” lugʻatida Rum – Hrōm shaklida keltirilgan boʻlib, “Rim” maʼnosini anglatadi³¹.

مصر کے ایک بڑے سردار پر نزع کا عالم طاری ہوا چہرے کی سرخی زردی میں تبدیل ہو گئی، دانشمند افسوس بے کرتے رہ گئے کہ کیا کریں، کیونکہ موت سے بچاؤ کا طب کی دنیا میں کوئی علاج نہیں۔

Tarjima: Misrning ulugʻ sardorlaridan birini jon berish azobi chulgʻadi, yuzidagi qizillik sargʻayishga aylandi, donishmandlar esa afsuslanib qolaverdilar: nima qilsinlar, axir oʻlimdan saqlab qolishning tabobat olamida hech qanday davosi yoʻq.

Yuqoridagi gapda مصر (Misr) toponim hisoblanadi.

“The Encyclopaedia of Islam” (“Islom ensiklopediyasi”) ning M harfli soʻzlar yoritilgan VII jildida MIŞR soʻzi quyidagicha izohlangan³²: shimoli-sharqiy Afrikada joylashgan, Oʻrtayer dengizi va Qizil dengizga chiqish yoʻli boʻlgan respublika; katta shahar; yirik aholi punkti; shahar markazi; mamlakat; Qohiraning janubiy qismiga tutash hudud yoki mintaqa; ikki narsa orasini ajratib turuvchi toʻsiq (chegara).

عراق میں ایک بادشاہ کے محل کے نیچے کسی فقیر نے صدا بلند کی “تو اور میں دونوں رب کی بارگاہ کے فقیر ہی ہیں اس لیے اس بارگاہ کی پیشی کو یاد کر اور اپنے دروازے پر آنے والوں کی حاجت کا خیال کر!

Tarjima: Iroqda bir podshohning saroyi yonginasida bir faqir ovozini balandlatib dedi: “Sen ham, men ham Parvardigor huzurida faqirmiz, shuning uchun U zotni yodga ol va eshigingga kelganlarning ehtiyojini inobatga ol”.

Yuqoridagi gapda عراق (Iroq) toponim hisoblanadi.

“The Encyclopaedia of Islam” (“Islom ensiklopediyasi”) ning I harfli soʻzlar yoritilgan II jildida³³:

IRĀḶ (al-IrāḶ al-arabī) shaklida keltirilgan. Qadimda al-IrāḶān, yaʼni “Ikki Iroq” mamlakatdagi eng qadimgi ikkita musulmon shahri – Kufa va Basrani anglatgan. Keyinchalik bu nom al-IrāḶ va al-Djibāl hududlariga birgalikda qoʻllanila boshlandi, bu Iroqni boshqargan saljuqiy hukmdor keyinchalik al-Djibālni ham zabt etgani bilan izohlanadi.

Toponimning maʼnosi aniq emas. Arab gipotezalariga koʻra, irāḶ “pasttekislik, sohilboʻyi, qirgʻoq” maʼnolarini anglatadi. Bir vaqtning oʻzida IrāḶ al-Sawād nomi bilan ham atalgan. al-Sawād – ekin maydonlari tufayli qoramtir rangga ega boʻlgan mamlakat. Biroq bu ikki nom sinonim emas, Sawād – oʻzgaruvchan tushuncha, IrāḶ esa turgʻun nomdir.

Toponimlarning tarixiy-etimologik tadqiqi natijasida ushbu nomlar geografik obyektlarni koʻrsatishdan tashqari, mintaqaning tabiiy xususiyatlari, tarixiy voqealari va madaniy anʼanalarini aks ettiradi, degan xulosaga kelish mumkin.

³⁰ Houtsman M.Th., Arnold T.W., Basset R., Hartmann R. The Encyclopaedia of Islam. – Leyden: Late E.J.Brill, 1913. – P.778.

³¹ MacKenzie D.N. A Concise Pahlavi Dictionary. – London: Oxford University Press, 1971. – P.82.

³² Houtsman M.Th., Arnold T.W., Basset R., Hartmann R. The Encyclopaedia of Islam. – Leyden: Late E.J.Brill, 1913. – P.146.

³³ Houtsman M.Th., Arnold T.W., Basset R., Hartmann R. The Encyclopaedia of Islam. – Leyden: Late E.J.Brill, 1913. – P.538.



ADABIYOTLAR RO'YXATI / REFERENCES:

1. M.Th.Houtsman, T.W.Arnold, R.Basset, R.Hartmann. The Encyclopaedia of Islam. – Leyden: Late E.J.Brill, 1913. – P.1227.
2. D.N.MacKenzie D.N. A Concise Pahlavi Dictionary. – London: Oxford University Press, 1971. – P.259.
3. В.С.Расторгуева, Д.И. Эдельман. Этимологический словарь иранских языков (Том 1, а-ā). – Москва: Восточная литература, 2000. – С.463.
4. Подолская Н. В. Словар русской ономастической терминологии. Москва: Наука, 1988. – С.96.
5. Вопросы ономастики. Сборник научных статей. Выпуск И. – Самарканд: издание СамГУ, 1971. – 150 с.
6. Суперанская А.В. теория и методика ономастических исследований. – Москва: Наука, 1986. – С.9.
7. Бегматов Е., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б.104.
8. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2002. – Б. 136.
9. Бегматов Э., Авлокулов Й. Ономастик қўлам тушунчаси // Ўзбек тили ва адабиёти. 2007. № 3. – Б.20.
10. Матвеев А. Ономастика ва ономатология: терминологик этюд // Вопросы ономастики. – Екатеринбург, 2005. – №2. – С. 5-12.